



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **KORXONALARDA MOLIVAVIY REJALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI**

Aripova Aziza Alisherovna  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Soliq va soliqqa tortish kafedrasida o'qituvchisi  
[aripova@tsue.uz](mailto:aripova@tsue.uz)

Raximova Shaxlo Rajapboevna  
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti  
Soliq va soliqqa tortish kafedrasida o'qituvchisi  
[sh.raximova@tsue.uz](mailto:sh.raximova@tsue.uz)

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada korxonalarda moliyaviy rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy boshqaruv, budget rejalashtirish, moliyaviy nazorat, audit va risklarni baholashga oid metodologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston moliya tizimida davlat sektori va korxonalar darajasida moliyaviy rejalashtirish jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida asosiy faoliyatdan olingan foyda yoki zarar ko'rsatkichining ahamiyati asoslab berilgan hamda ayrim aksiyadorlik jamiyatlari misolida ushbu ko'rsatkichning 2020–2024-yillardagi dinamikasi tahlil qilingan. Tahlil natijalari korxonalarda strategik moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlash, soliqlarni rejalashtirish, pul oqimlarini boshqarish va moliyaviy risklarni barvaqt aniqlash mexanizmlarini



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Maqolada moliyaviy rejalashtirishni korxonaning moliyaviy barqarorligi, investitsion faolligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim boshqaruv vositasi sifatida baholash zarurligi asoslangan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy rejalashtirish metodologiyasi, korxonalar moliyasi, strategik moliyaviy reja, moliyaviy prognozlash, soliqlarni rejalashtirish, asosiy faoliyat foydasi, moliyaviy natija, moliyaviy risk, moliyaviy nazorat, audit, pul oqimlari, moliyaviy barqarorlik, aksiyadorlik jamiyati.

Jahon amaliyotida Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi va boshqa shu kabi yirik moliyaviy institutlar tomonidan mulkchilikning turli yo'nalishlari bo'yicha, shu jumladan davlat va xususiy sektorda moliyaviy rejalashtirish bilan bog'liq juda ko'plab metodologik ahamiyatga ega bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bularda asosiy masala moliyaviy rejalashtirish milliy xo'jaliklar doirasida iqtisodiy siyosatni va moliya salohiyatini strategik yondoshuv bilan boshqarishning muhim shakli sifatida umumiy tavsiyalar keltirilgan. Jumladan, Jahon banki "Financial Management (FM)" doirasidagi uslubiy yondoshuvlarida davlatlar va jamoat sektorlarida moliyaviy rejalashtirish, hisob siyosati, moliyaviy nazorat jarayonlari va auditor tizimini kuchaytirish bo'yicha ko'maklar berib kelinmoqda. Bu jarayonda jahon mamlakatlarida budget rejalashtirish va mablag' ajratish jarayonlarini ta'minlash, hisobdorlik, shaffoflik va audit mexanizmlarini yaratish hamda moliyaviy risklarni baholash va nazorat qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston moliya tizimida ham moliyaviy rejalashtirishni amalga oshirish jarayonlari tadrijiy rivojlanib bormoqda. Davlat sektorida moliyaviy rejalashtirishda o'rta muddatli rejalashtirish instrumentlariga alohida urg'u



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

berilayotgan bo'lsa, korxonalar va tashkilotlarda taktik va strategik moliyaviy rejalashtirishning ilg'or uslublarini qo'llash rivojlanib bormoqda. Davlat sektorida uch yilga mo'ljallangan "Fiskal moliyaviy strategiya"da moliyaviy rejalashtirishning turli xil uslublaridan keng foydalanib kelinayotgan bo'lsa, korxonalarda foyda olishga qaratilgan turli xil ichki siyosatlarini umumlashtirishda va muvofiqlashtirishda strategik moliyaviy rejalar tuzish muhim ustuvor yo'nalish sifatida chiqmoqda.

Soliq ma'murchiligini takomillashtirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi va bu nafaqat qonunchilikni isloh qilish, balki inson kapitali, axborot texnologiyalari, fuqarolik jamiyati va davlat organlari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etishni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, mazkur masala O'zbekiston iqtisodiyoti uchun strategik ahamiyat kasb etib, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy rejalashtirishning metodologik masalasiga oid nazariy va amaliy jihatlari Malikov T.S., Olimjonov O.O, Elmirezayev S.E, Axmedov X.R, Xamidov S.F., Allakuliyev A.B., Karlibayeva R.K, Temirov A.A, Xudoyqulov S.K., Maxmudov S. B., Hamdamov O.N, Karimov A., B.Mirzayev va shu kabi mahalliy olimlarimiz tomonidan moliyaviy rejalashtirishning metodologik muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

uslubiy yondashuvga ko'ra "moliyaviy rejalashtirish metodologiyasi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni, korxonalarda soliqlarni rejalashtirish metodologiyasi soliq to'lovlari tarkibini tahlil qilish, amaldagi imtiyoz va preferensiyalarni maqsadli qo'llash, soliq risklarini barvaqt aniqlash hamda soliq to'lovlari moliyaviy natijalar bilan muvofiqlashtirish tartibini joriy etish, korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida moliyaviy prognozlash va soliqlarni rejalashtirish o'rtasidagi bog'liqlik modeli daromadlar, xarajatlar, soliq majburiyatlari va pul oqimlarini yagona analitik zanjirda o'zaro



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

muvoqilashtirish, prognoz va reja ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovutlarni barvaqt aniqlashga etarlicha e'tibor berilmagan.

Moliyaviy rejalashtirish faoliyat ko'lami bo'yicha turlanadi. Jumladan, kompleks (integratsiyalashgan) moliyaviy rejalashtirish bu korxonaning barcha moliyaviy faoliyati turlarini o'z ichiga olsa, qisman moliyaviy rejalashtirish alohida hududlarni qamrab oladi (masalan: faqat investitsiyalar yoki faqat soliqlar). Ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, maqsadlarni belgilash va muayyan moliyaviy faoliyatni ishlab chiqishni o'z ichiga olgan tizimli jarayon sifatidagi moliyaviy rejalashtirishni to'g'ri tashkil etishning bosqichma-bosqichni talab etadi.

Amalga oshirgan nazariy tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, moliyaviy rejalashtirish - bu korxonaga maqsadlariga erishish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanishni rejalashtirish bilan bog'liq boshqaruv faoliyatining bir turi bo'lib, moliyaviy va investitsiya siyosatni tahlil qilish, ularning natijalarini va korxonaning iqtisodiy muhitiga ta'sirini prognozlash jarayon, xavfning maqbul darajasi bo'yicha qarorlar qabul qilish va moliyaviy rejalarning yakuniy variantlarini tanlash jarayoni tashkilotni zarur resurslar bilan ta'minlash va kelajakda uning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish korxonaga faoliyatini boshqarishda muhim hisoblanadi.

Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda yoki zarar ko'rsatkichi tahlil qilish asosiy faoliyatdan olinayotgan foydani tahlil qilish orqali korxonaga o'z biznes-modelining ishonchligini va samaradorligini baholaydi, bu yerda, agar foyda manbai asosiy faoliyat emas, boshqa yordamchi yoki tasodifiy faoliyat bo'lsa, bu xavfli holat sanaladi. Shuningdek, **strategik qarorlar qabul qilish uchun asos bo'ladi, chunki, asosiy faoliyatdan olinayotgan foyda yoki zarar tahlili korxonaga qaysi ishlab chiqarish yoki xizmat turlari samarali, qaysi biri esa zararli ekanini aniqlash**



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

imkonini beradi, bu esa kelgusidagi investitsiya, diversifikatsiya yoki ixtisoslashtirish qarorlarini to'g'ri qabul qilishga yordam beradi.

### **Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda yoki zarar ko'rsatkichining tahlili<sup>1</sup>**

(mln so'm)

№	Korxonalar nomi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
1	«Surxonoziqovqatsanoati» aksiyadorlik jamiyati	4 562,1	-2 650,4	-4 330,6	-6937,8	-7 087,5
2	"Surxon parmalash ishlari" aksiyadorlik jamiyati	2 716,6	1 490,5	640,1	246,0	1 822,4
3	«Surxondaryodonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyati	20 720,1	1 850,7	1 988,4	762,0	- 3 219,8
4	"Sharg'unko'mir" aksiyadorlik jamiyati	8 838,2	3 352,0	1 862,0	2 969,8	1 644,4
5	"Boyovut paxta tozalash" aksiyadorlik jamiyati	-28 867,2	16 714,7	-2 554,9	-2 824,3	-1 913,7
6	«Kvars» aksiyadorlik jamiyati	11 295,3	141590,1	90 133,4	49 951,7	111 449,1
7	«Qo'qon mexanika zavodi» aksiyadorlik jamiyati	309,0	655,3	-1 438,9	1 316,5	1 405,5

Yuqoridagi jadvaldan xulosa qilish mumkinki, korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda yoki zarar ko'rsatkichi tahlil qilinayotgan yillarda turlicha bo'lgan. Jumladan, bu ko'rsatkich "Boyovut paxta tozalash" aksiyadorlik jamiyatida va «Surxonoziqovqatsanoati» aksiyadorlik jamiyatida tahlil qilinayotgan yillarda zarar bilan yakunlangan Qolgan korxonalarni tahliliga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda ham asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda doimiy dinamika ega emasligini

<sup>1</sup> Tahlil qilinayotgan korxonalar (aksiyadorlik jamiyatlari)ning moliyaviy hisobotlari va ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



## International Congress on Economics, Management and Business Studies

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

ko‘rish mumkinki, bunga ko‘plab omillar ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Nazariy va amaliy jihatdan olganda korxonalarda moliyaviy rejalashtirish jarayonida **asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda yoki zarar** ko‘rsatkichining tahlili juda muhim sanaladi, bu ko‘rsatkich korxonaning **ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki savdo faoliyatidan olinayotgan real moliyaviy samarasini** ifoda etadi va korxonaning asosiy iqtisodiy salohiyatini ochib beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining 2025–2027-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasining 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan Fiskal strategiyasi. Toshkent, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent: Adolat, amaldagi tahrir.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonunlari. Toshkent, tegishli yillar.
5. Malikov T.S. Moliya. Toshkent: Iqtisod-moliya.
6. Olimjonov O.O. Moliya tizimi va moliyaviy boshqaruv masalalari. Toshkent.
7. Elmirezayev S.E. Korporativ moliya. Toshkent: Iqtisod-moliya.
8. Axmedov X.R. Moliyaviy menejment. Toshkent.
9. Xamidov S.F. Korxonalar moliyasi. Toshkent.
10. Allakuliyev A.B. Moliyaviy rejalashtirish va prognozlashning nazariy asoslari. Toshkent.
11. Karlibayeva R.K. Korxonalarda moliyaviy boshqaruv. Toshkent.
12. Temirov A.A. Moliyaviy tahlil. Toshkent.
13. Xudoyqulov S.K. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent.



## **International Congress on Economics, Management and Business Studies**

Hosted Online from New York, USA

Date: 23<sup>rd</sup> June , 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

14. Maxmudov S.B. Moliyaviy nazorat va audit. Toshkent.
15. Hamdamov O.N. Korxonalarda moliyaviy tahlilni tashkil etish. Toshkent.
16. Karimov A. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot. Toshkent.
17. Mirzayev B. Moliyaviy menejment va strategik rejalashtirish. Toshkent.